

**SHAHAR KO‘CHALARINING CHORRAHA MINTAQALARIDA  
PIYODALARNING MAVJUD HARAKATLANISH HOLATLARI.  
(TERMIZ SHAHRI MISOLIDA)**

*G‘ulomov Umidjon Baxodir o‘g‘li,  
Bobomuratov Saydulla Yunusovich,  
O‘qituvchi, Termiz muhandislik-texnologiya instituti,  
Termiz shahri.*

*Annotasiya:* Ushbu maqolada Termiz shahrida joylashgan At-Termiziy va Alisher Navoiy ko‘chalaridagi tutashmadagi piyodalarning chorraha mintaqasida harakatlanish holatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari piyodalarning bir soatlik harakat miqdori va piyodalarning harakatlanish vaqtidagi qoidabuzarliklari aniqlanib tahlil qilingan.

*Kalit so‘zlar:* Shahar ko‘cha yo‘li, piyodalar harakat miqdori, chorraha va tutashmalar, piyodalar harakat yo‘lagi, piyodalar qoidabuzarliklari.

**СУЩЕСТВУЮЩИЕ УСЛОВИЯ ПЕШЕХОДНОГО ДВИЖЕНИЯ В  
РАЙОНАХ ПЕРЕСЕЧЕНИЯ УЛИЦ ГОРОДА. (В СЛУЧАЕ ГОРОДА  
ТЕРМЕЗ)**

*Аннотация:* В данной статье рассмотрены случаи движения пешеходов в районе перекрестка на перекрестке улиц Ат-Термизи и Алишера Навои в городе Термез. Кроме того, были выявлены и проанализированы нарушения пешеходов в объеме движения в час и времени движения пешеходов.

*Ключевые слова:* городская уличная дорога, объем движения пешеходов, перекрестки и перекрестки, тротуар, нарушения пешеходов.

*Kirish.* Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-son qarori[1] bilan tasdiqlangan “*Yo‘l harakati qoidalari*”ga ko‘ra **Piyoda** - transport vositasidan tashqarida bo‘lgan va yo‘lda biror-bir yumush bilan band bo‘lmagan shaxs deb e‘tirof etilgan. **Piyodalarning chorrahalarida harakatlanish tartibi.** Yo‘l harakati qoidalari”ga ko‘ra piyodalar yo‘lning qatnov qismini piyodalar o‘tish joylaridan, shuningdek yer osti va yer usti o‘tish joylaridan, ular bo‘lmaganda esa chorrahalarida trotuar chiziqlari yoki yo‘l yoqasi bo‘ylab kesib o‘tishlari kerak. Piyodalarga ko‘rinadigan oraliqda o‘tish joyi yoki chorraha bo‘lmasa, ajratuvchi bo‘laksiz va to‘siqsiz yo‘llardan yo‘lning ikki tomoni yaxshi ko‘rinadigan joyidan, qatnov qismining chetiga nisbatan to‘g‘ri burchak ostida kesib o‘tishlariga ruxsat etiladi. Shuningdek, ular yo‘lning qatnov qismini piyodalar o‘tish joylaridan tashqarida kesib o‘tishda transport vositalarining harakatlanishiga xalaqit bermasliklari, yaqinlashib kelayotgan transport

vositalarining yoʻqligiga ishonch hosil qilmasdan turib, koʻrinishni cheklovchi, toʻxtab turgan transport vositasi yoki boshqa biror toʻsiq panasidan chiqmasliklari kerak[3].

### **Piyodalarning chorraxalarda harakatlanish xususiyatlari va ularga taʼsir etuvchi omillar.**

Piyodalarning yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlanganlik holati:

- oʻzlarining, shuningdek, transport vositalari haydovchilarining yoʻl harakati qoidalariga amal qilishlariga;
- piyodalar oʻtish joylarining mavjudligi, belgilangan talablar asosida jihozlanganligi va saqlanishiga bogʻliqdir.

**Piyodalarning chorraxalardagi tezligi.** Piyodalarning harakatlanish xususiyatlarini aniqlashda piyodalarning tezligi muhim ahamiyat kasb etib, u quyidagi masalalarni hal etishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi: piyodalar yoʻlagining geometrik parametrlarini aniqlashda; oʻtkazish qobiliyatini hisoblashda; harakatni tashkil etish sxemalarini tuzishda. Piyodalarning harakat tezligiga piyoda yoʻlagining geometrik parametrlari, piyodalarning tarkibi, harakat miqdori va asosan zichligiga katta taʼsir koʻrsatadi[4].


**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot ishida Termiz shahridagi At-Termiziy, Alisher Navoiy koʻchalari chorraxasidagi qoplama ustida joylashgan tartibga solinmagan va tartibga solingan piyodalar oʻtish joyidan oʻtuvchi piyodalarning harakatlanish holatlari oʻrganildi. Tanlab olingan obʼektning tartibga solingan va tartibga solinmagan chorraxalar mintaqasida oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasi boʻyicha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, piyodalarning tartibga solinmagan chorraxalar mintaqasidagi piyodalar oʻtish joyidagi harakatlanish holatlari, ularning tartibga solingan chorraxalar mintaqasidagi harakatlanish holatlaridan yuqori qiymatni tashkil qildi.



*1- rasm. Piyoda va velosipedchilarining chorraxalarda xarakatlanish holatlari.*

### **At-Termiziy va Alisher Navoiy, koʻchalari kesishmasida piyodalar harakat jadalligini oʻrganish.**

Chorrahadagi piyodalarning harakat jadalligini ertalabki soat 8:00 dan 9:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'lchaymiz. Har bir piyodalar o'tish joyini belgilab olamiz (2-rasm).



2-rasm. At-Termiziy va A.Navoiy ko'chalarini kesishmasining yandeks xaritasidagi ko'rinishi.

Quyidagi jadvallarda piyodalar harakat jadalligi va qoidabuzarliklar keltirilgan.

1.1-jadval

A-piyodalar yo'lagi

Vaqt	Piyodalar harakati			Qoidabuzarlik		
	→	←	jami	→	←	Jami
8 <sup>00</sup> -8 <sup>05</sup>	24	17	41	2	1	3
8 <sup>05</sup> -8 <sup>10</sup>	14	11	25	1	2	3
8 <sup>10</sup> -8 <sup>15</sup>	9	12	21	1	3	4
8 <sup>15</sup> -8 <sup>20</sup>	6	20	26	2	1	3
8 <sup>20</sup> -8 <sup>25</sup>	13	10	23	3	2	5
8 <sup>25</sup> -8 <sup>30</sup>	17	12	29	0	1	1
8 <sup>30</sup> -8 <sup>35</sup>	19	21	40	2	3	5
8 <sup>35</sup> -8 <sup>40</sup>	17	13	30	3	4	7
8 <sup>40</sup> -8 <sup>45</sup>	8	12	20	3	2	5
8 <sup>45</sup> -8 <sup>50</sup>	19	9	28	1	2	3
8 <sup>50</sup> -8 <sup>55</sup>	21	18	48	1	0	1
8 <sup>55</sup> -9 <sup>00</sup>	13	17	40	0	2	2
<b>jami:</b>	180	172	352	19	23	42

1.2-jadval

B- piyodalar yo'lagi

Vaqt	Piyodalar harakati	Qoidabuzarlik
------	--------------------	---------------

	↑	↓	jami	↑	↓	Jami
8 <sup>00</sup> -8 <sup>05</sup>	27	12	39	2		2
8 <sup>05</sup> -8 <sup>10</sup>	16	8	24		3	3
8 <sup>10</sup> -8 <sup>15</sup>	14	17	31		1	1
8 <sup>15</sup> -8 <sup>20</sup>	17	13	30	4		4
8 <sup>20</sup> -8 <sup>25</sup>	19	12	31	1	1	2
8 <sup>25</sup> -8 <sup>30</sup>	13	19	32		1	1
8 <sup>30</sup> -8 <sup>35</sup>	15	12	27	2		2
8 <sup>35</sup> -8 <sup>40</sup>	28	7	35	4	2	6
8 <sup>40</sup> -8 <sup>45</sup>	16	4	20	2	1	3
8 <sup>45</sup> -8 <sup>50</sup>	21	5	26	2	3	5
8 <sup>50</sup> -8 <sup>55</sup>	15	1	16	1		1
8 <sup>55</sup> -9 <sup>00</sup>	11	6	17		2	2
<b>jami:</b>	212	116	328	18	14	32

**Xulosa.** Piyodalarning yo‘l harakat qoidalarida belgilangan qoidalarga amal qilmasliklari hamda ularning harakatlanish xususiyatlaridagi salbiy ta’sirlar natijasida piyodalar ishtirokida yo‘l-transport hodisasi sodir etilishi xavfi vujudga keladi. Termiz shaharlari magistral ko‘chalarining chorraha va tutashmalar mintaqalarida piyodalarning mavjud harakatlanish holatlarini o‘rganib chiqdik. Bundan tashqari piyodalarning qoidabuzarliklarini aniqladik. Piyodalarning chorraha mintaqasida ko‘p qoidabuzarliklar shaharda joylashgan bozor atroflari, universitet atrofida, park, shifoxonalar yaqinida joylashgan chorrahalarda sodir etilishi aniqlandi. Bunga sabab harakat jadalligini yuqoriligi va svetafor siklining to‘g‘ri tanlanmaganligini keltirib o‘tsak bo‘ladi. Bundan tashqari piyodalarning harakat xavfsizligi qoidalariga rioya qilmasliklarini ham keltirib o‘tsak bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172sonli «Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.
2. Якимов А.Ю., Смирнов Е.А. Организация и безопасность дорожного движения в крупных городах. “Организация и безопасность дорожного движения в крупных городах” сборных докладов седьмой международной конференций; посвященной 70 летию Государственной инспекции безопасности дорожного движения МВД Россия, Санкт –Петербург, 21-22 сентября 2006 г. 514с. 24. Фишельсон М.С. “Городские пути сообщения”.М.:Вышая школа, 1980 г -290 с.

3. O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB matbuot xizmati.  
<https://yhxx.uz/uz/manage>
4. Q.H.Azizov Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari.-T.: Fan va texnologiyalar 2009-243-244 b.